Oliy ta'limda aksiologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish ijtimoiy ehtiyoj va pedagogik muammo sifatida.....	602
<i>B. S. Siddikov</i>	
Sport mashg'ulotlar davomida mushak va suyak tizimi rivojlanishi	606
<i>Bo'ronova Habiba Erkin qizi</i>	
Stol tennisi o'yini texnikasi.....	609
<i>Ibragimov Abduqahhor Abdulaziz o'g'li</i>	
Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy platformalarning afzalliklari: Wordwall, Educaplay, Blooket, Genially, Kahoot platformalari	613
<i>Kalandarova Dilnoza Samandarovna, Qodirova Madina Nosirovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan paraarmrestlingchi talabalarni musobaqa oldidan texnik tayyorgarligini takomillashtirish	617
<i>Karimov Faxriddin Xurramovich</i>	
Developing Critical Reading Skills Through Content-Based Instruction.....	621
<i>Mekhmonkulov Burkhon Ma'ruf ugli</i>	
Tog'li va shahar hududida ta'lim oluvchi tinglovchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini taqqoslash	626
<i>Mirjamolov Sirojiddin Xayriddinovich</i>	



Korxonada va tashkilotlarda ishchi-xodimlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish asosida ish faolligini oshirish texnologiyasi	630
Muxametov Axmad Muxametovich	
Xalq ta'limi bo'limi rahbarlarining xalqaro baholash tizimini O'zbekiston ta'limiga moslashtirishdagi o'rni	634
Namazova Manzura Urakovna, Nodirov Dilmurod	
Digital Reading vs. Print Reading: Effects on EFL Learners' Reading Speed and Understanding	639
Rustambekova Ozoda Dilshod kizi	
Yoshlarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishini oshirishning samarali usullari	644
To'rayev Farrux Hakim o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalaridagi talaba-qizlarni dzyudo sport turi texnik harakatlariga o'rgatish texnologiyasi	647
Toshboyeva Munisa Bozor qizi	
Sport mashg'ulotlarda jarohatlarning oldini olish va xavfsizlik choralarini	650
Xudoyberdiyeva Elmira Botir qizi	
Задачи изучения и преподавания русского языка и литературы в общеобразовательных школах с узбекским языком обучения	654
Ahmedov Humon	
Multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish	658
Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Rahmonov Ziyodillo Xusanovich	
Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi (immitativ-taqiidiy usul misolida)	661
Jo'rayeva Dilafuz Nuriddinova	
O'simliklarning issiqqa va qurqoqchilikka chidamliligi	664
M. Nazarov, G. Maxsudova, T. Usmonova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik jarayonlar ko'rsatkichlarining tahlili	667
Masharipova Miyassar Ichanovna	
Bo'lajak tarbiyachilarni "Tabiat bilan tanishtirish" fani asosida tarbiyaviy faoliyatini raqamlashtirish	675
Saydullayeva Barchinoy Abduxalil qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritishga tayyorlash muammolari	678
Shaxnoza To'xtiyarova	
Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi	681
Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
Umumta'lim maktablarining 9-sinf fizika darslarida tovush hodisasini anglashni tajriba orqali rivojlantirish	684
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Emotsional intellekt tushunchasining nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari	689
Tajiboyeva Odinoxon Rustamjon qizi	
Portret janrini o'qitishda individual ta'lim va fanlararo integratsiyaning nazariy-metodologik asoslari	693
Xudaynazarova Ug'iloy Sharifovna	
Aqli zaif bolalarda sensomotor rivojlanishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	696
Xudoyberdiyeva Ra'no Arabboyevna	
Yuqori sinf o'quvchilarida estetik madaniyatni tarbiyalash metodikasi (tarbiya fani misolida)	700
Yoqubjonova Shodiya G'ayratovna	
Chizmachilik fanining turmush tarzimidagi ahamiyati va o'rni	704
Achilov Nurbek Norboy o'g'li	
O'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqtirishda musiqa psixologiyasining roli	707
E'zozxon Qobilova	
Bolalar adabiyotini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirish va kreativ kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion yo'llari	710
G'aniyeva Shodiya Azizovna, Abdullayeva Madinaxon Madaminjon qizi	
Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan mashqlarni til kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida tahlil qilish	713
G'anijonova Sarvinov, Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna	
O'quvchilarda global o'qish savodxonligini shakllantirishda milliy matnlar va qadriyatlar asosidagi pirls tipidagi topshiriqlar yaratish tajribasi	717
Ikromova Gulhida Axmadillo qizi, G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi	



Bo'lajak pedagoglarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalari pedagogik muammo sifatida	720
<i>Karriyabeva Lobarxon Fayzulla qizi</i>	
Ilmiy matn o'qib tushunish va baholashda nostandart testlardan foydalanish bosqichlari.....	724
<i>Komilova Lola Nasilloevna</i>	
Dizariyada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'yin orqali rivojlantirish texnologiyalari.....	728
<i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	
Turkiy bitiklarda nomlar tizimi va ularning semantik xususiyatlari	732
<i>Munisa Shavkatova</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	736
<i>Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna</i>	
Sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish metodlari	740
<i>Nazarov Nursultan Safarbayevich</i>	
Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda loyihalashtirishning o'rni va ahamiyati.....	744
<i>Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich</i>	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati.....	748
<i>Qobilova Aziza Tursunovna</i>	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish	752
<i>Salimova Aziza Sharipovna</i>	
Xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'limning imkoniyatlari va muammolari	755
<i>Sidiqova Ma'mura Adhamjonovna</i>	
Til kompetentligini rivojlantirishda vizual materiallardan foydalanishning o'rni (boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish texnologiyasi misolida)	758
<i>Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna, Sobirova Diloromxon Ma'rufjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi ko'xlear implantli bolalarni eshituv - nutqiy reabilitatsiyasi	761
<i>Xamraeva Dildora Baxadirovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni kelib chiqish sababalari va korreksion ishlar	766
<i>Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna</i>	
Эффективность арт-терапии в обогащении словарного запаса у детей с ЗПП	770
<i>Наган Олеся Талгатовна</i>	
Autizmlı bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....	775
<i>Nishonova Sevara</i>	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchılarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari (XIX–XXI asrda).....	778
<i>Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya</i>	
Autizmlı bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish texnologiyalari.....	781
<i>Raxmonova Manzura Maxmudovna</i>	
Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
<i>Usarova Nigora Berdiyarovna</i>	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
<i>Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich</i>	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
<i>M. L. Aripova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
<i>Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi</i>	



BOSHLANG'ICH SINIF DARSLIKLARIDA BERILGAN MASHQLARNI TIL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MAQSADIDA TAHLIL QILISH

G'anijonova Sarvinoz

Farg'ona davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası
2-kurs magistranti

Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'zbek tili darsliklarida berilgan mashqlarning til kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, hozirgi darsliklarning aksariyat mashqlari an'anaviy til bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar yetarli darajada emas. Maqolada darslik mashqlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: til kompetensiyasi, boshlang'ich sinf, darslik mashqlari, kommunikativ kompetensiya, lingvodidaktika, o'zbek tili ta'limi.

Abstract: This article is devoted to analyzing the effectiveness of exercises presented in primary school Uzbek language textbooks in developing language competence. The results of the study showed that most exercises in current textbooks are aimed at reinforcing traditional linguistic knowledge, while tasks intended to develop communicative competence remain insufficient. The article offers practical recommendations for improving textbook exercises based on a competency-based approach.

Key words: language competence, primary school, textbook exercises, communicative competence, linguodidactics, Uzbek language education.

Аннотация: Статья посвящена анализу эффективности упражнений, представленных в учебниках узбекского языка для начальной школы, в развитии языковой компетенции. Результаты исследования показали, что большинство упражнений в современных учебниках направлены на закрепление традиционных языковых знаний, а заданий, способствующих развитию коммуникативной компетенции, недостаточно. В статье даны практические рекомендации по совершенствованию упражнений учебников на основе компетентностного подхода.

Ключевые слова: языковая компетенция, начальная школа, упражнения учебника, коммуникативная компетенция, лингводидактика, узбекское языковое образование.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosiy yo'nalish sifatida tan olingan bo'lib, bu yondashuv o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini real hayotda qo'llash qobiliyatini shakllantirish vazifasini oldinga qo'yadi ^[1]. Til kompetensiyasi deganda o'quvchining ona tilida erkin va samarali muloqot qila olish, nutqiy faoliyatning barcha turlarida to'g'ri va maqsadga muvofiq til vositalaridan foydalanish qobiliyati tushuniladi. Boshlang'ich sinf ta'limi jarayonida til kompetensiyasining asoslari shakllanadi va bu jarayonda darsliklarning roli beqiyos ahamiyat kasb etadi ^[2].

Til kompetensiyasi tushunchasi 1960-yillarda amerikalik tilshunos Noam Chomsky tomonidan kiritilgan bo'lsa-da, keyinchalik bu konsepsiya D. Hymes, M. Canale, M. Swain va boshqa olimlar tomonidan kengaytirilib, kommunikativ kompetensiya konsepsiyasi shakllantirilgan ^[3]. Zamonaviy lingvodidaktikada til kompetensiyasi lingvistik, kommunikativ, pragmatik va strategik komponentlarni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf

bosqichida bu komponentlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, darslik mashqlari orqali bosqichma-bosqich shakllantirilishi lozim ^[4]. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish doirasida Davlat ta'lim standartlari qabul qilingan bo'lib, bu standartlarda kompetensiyaviy yondashuvning amalga oshirilishi alohida ta'kidlangan. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, darslik mashqlari ko'pincha an'anaviy reproduktiv xarakterda bo'lib, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash, mustaqil muloqot yuritish kompetensiyalarini yetarli darajada rivojlantirmaydi ^[5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot jarayonida deskriptiv-analitik metod, taqqoslash metodi, kontent-analiz va tizimli yondashuv qo'llanildi. Tahlil mezonlari sifatida zamonaviy lingvodidaktik adabiyotlarda keltirilgan til kompetensiyasi komponentlari asosida ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar majmuasi qo'llanilgan ^[6].

Til kompetensiyasi to'g'risidagi nazariy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tushunchaning turli talqinlari mavjud bo'lsa-da, aksariyat tadqiqotchilar uning ko'p komponentli tabiati to'g'risida kelishib olganlar. M. Canale va M. Swain tomonidan ishlab chiqilgan klassik modelda kommunikativ kompetensiya to'rtta asosiy komponentdan iborat: grammatik kompetensiya (til qoidalarini bilish), sosiolingvistik kompetensiya (ijtimoiy kontekstga muvofiq til vositalarini tanlash), diskursiv kompetensiya (nutqni izchil va mantiqiy tashkil etish) va strategik kompetensiya (muloqot jarayonidagi qiyinchiliklarni yengish) ^[3].

Rus tilshunoslari I.A. Zimnyaya, A.V. Xutorskoy, N.D. Gal'skova kabi olimlar til kompetensiyasining pedagogik va psixologik asoslarini o'rganib, uning o'quv jarayonida shakllanish mexanizmlarini tahlil qilganlar ^[7].

O'zbek lingvodidaktikasida S. Matchanov, N. Mahmudov, H. Nematov, Sh. Asqarova va boshqalar ona tili ta'limining nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishga katta hissa qo'shganlar ^[8]. Zamonaviy darslik yaratish metodologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlar darslikning mazmuni, tuzilishi va metodologik apparati o'quvchilarning yosh xususiyatlari, kognitiv qobiliyatlari hamda kompetensiya standartlariga mos kelishi zarurligini ta'kidlaydi ^[9]. Kognitiv faolligiga ko'ra mashqlar reproduktiv (takrorlash, nusxa ko'chirish), yarim produktiv (namuna bo'yicha bajarish, almashtirib qo'yish) va produktiv (ijodiy, mustaqil bajarish) turlarga bo'linadi ^[10].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'rganilgan 1–4-sinf o'zbek tili darsliklarining umumiy tahlili shuni ko'rsatdiki, darsliklarda mingdan ortiq turli xil mashq va topshiriqlar mavjud. Mashqlarning taqsimoti va ularning xarakteristikasi 1-jadvalda keltirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, darsliklarning aksariyat mashqlari lingvistik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular grammatik qoidalarni o'rganish, so'z boyligini oshirish, imlo va tinish belgilarini to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida tuzilgan. Bunday mashqlar asosan reproduktiv xarakterga ega bo'lib, nusxa ko'chirish, bo'sh joylarni to'ldirish, namuna bo'yicha gaplar tuzish kabi topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar nisbatan kam bo'lib, ular ko'proq og'zaki nutq mashqlari orqali amalga oshiriladi.

1-jadval: Boshlang'ich sinf darsliklaridagi mashqlarning turlari va taqsimoti

Mashq turi	1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf	Jami	Foiz (%)
Fonetik-grafik mashqlar	95	78	52	38	263	14.2
Leksik mashqlar	68	112	125	118	423	22.9
Grammatik mashqlar	82	135	148	142	507	27.4
Imlo mashqlari	54	89	96	88	327	17.7
Og'zaki nutq mashqlari	38	52	48	55	193	10.4
Yozma nutq mashqlari	12	18	32	45	107	5.8
Ijodiy mashqlar	5	8	10	10	33	1.8
Jami	354	492	511	496	1853	100

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, grammatik mashqlar umumiy hajmning 27,4 foizini, leksik mashqlar 22,9 foizini, imlo mashqlari esa 17,7 foizini tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar darsliklarning asosan lingvistik kompetensiya komponentiga yo'naltirilganligini tasdiqlaydi. Biroq kommunikativ kompetensiya uchun zarur bo'lgan og'zaki va yozma nutq mashqlari jami 16,2 foizni tashkil etib, bu zamonaviy ta'lim standartlari talablariga to'liq javob bermaydi. Ayniqsa, ijodiy mashqlarning nihoyatda kamligi (1,8%) o'quvchilarning kreativ fikrlash, nutqiy ijod qilish va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi. Sinflar bo'yicha taqsimot tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqori sinflarda grammatik va leksik mashqlar soni ortib boradi, biroq



og'zaki nutq mashqlarining ulushi deyarli o'zgaraydi. Bu holat boshlang'ich sinf bosqichida kommunikativ ko'nikmalarini izchil rivojlantirish tamoyiliga mos kelmaydi.

Mashqlarning kompetensiya komponentlari bo'yicha taqsimoti 2-jadvalda keltirilgan. Til kompetensiyasining to'rtta asosiy komponenti – lingvistik, kommunikativ, pragmatik va strategik – bo'yicha mashqlar tahlil qilindi. Tahlil mezonlari sifatida har bir mashqning asosiy maqsadi, o'quvchi faoliyatining xarakteri, topshiriq sharti hamda kutilayotgan natija ko'rsatkichlari olingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, lingvistik kompetensiya komponentiga qaratilgan mashqlar umumiy hajmning 71,3 foizini tashkil etadi. Bu mashqlar tilning strukturaviy qoidalarini o'rganish, grammatik kategoriyalarni tushunish, so'z yasalishi va sintaksis qonuniyatlarini egallash kabi vazifalarni bajaradi. Kommunikativ kompetensiya mashqlari 18,9 foizni tashkil etib, nutqiy vaziyatlarni modellashtirish, dialoglar tuzish hamda matnlar bilan ishlashga qaratilgan.

2-jadval: Mashqlarning kompetensiya komponentlari bo'yicha taqsimoti

Kompetensiya komponenti	1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf	O'rtacha foiz
Lingvistik kompetensiya	285 (80,5%)	362 (73,6%)	358 (70,1%)	316 (63,7%)	71,3%
Kommunikativ kompetensiya	48 (13,6%)	82 (16,7%)	102 (20,0%)	118 (23,8%)	18,9%
Pragmatik kompetensiya	15 (4,2%)	35 (7,1%)	38 (7,4%)	47 (9,5%)	7,3%
Strategik kompetensiya	6 (1,7%)	13 (2,6%)	13 (2,5%)	15 (3,0%)	2,5%
Jami	354	492	511	496	100%

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, pragmatik kompetensiyaga qaratilgan mashqlar juda kam (7,3%) bo'lib, ular nutqni vaziyatga muvofiq shakllantirish, muloqot maqsadiga erishish hamda so'zlashuv odob-axloqi qoidalarini qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Strategik kompetensiya mashqlari esa minimal darajada (2,5%) bo'lib, o'quvchilarni o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash, til o'rganish strategiyalaridan foydalanish ko'nikmalariga yetarlicha o'rgatmaydi. Sinflar bo'yicha dinamika ijobiy tendensiyani ko'rsatsa-da, yuqori sinflarda kommunikativ va pragmatik mashqlar ulushi asta-sekin oshib boradi, biroq bu o'sish sur'ati kompetensiyaviy yondashuv talablariga javob berish uchun yetarli emas. 4-sinfda ham lingvistik mashqlar 63,7 foizni tashkil etib, ustunlikni saqlab qolmoqda.

Mashqlarning mazmuniy tahlili quyidagi xususiyatlarni aniqlashga imkon berdi. Birinchidan, ko'pchilik mashqlar bir tomonlama, yakka tartibda bajarilishi mo'ljallangan bo'lib, guruhli va juftlik ishlari uchun mo'ljallangan topshiriqlar juda kam. Bu holat o'quvchilarning o'zaro muloqot qilish, hamkorlikda ishlash va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatini cheklaydi. Ikkinchidan, mashqlar asosan darslik matnlari va yakka tartibda berilgan gaplar bilan bog'liq bo'lib, real hayotiy vaziyatlar, amaliy muammolar va autentik materiallar bilan ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlar yetarli emas. Uchinchidan, ko'pchilik mashqlar yopiq tipda bo'lib, aniq bir to'g'ri javobni talab qiladi. Bu esa o'quvchilarning ijodiy yondashuvi, turli yechimlarni topish qobiliyati va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga imkon bermaydi^[6]. Boshqa tomondan, darsliklarning ijobiy jihatlarni ham alohida qayd etish lozim. Fonetik-grafik mashqlarning 1-sinfda ko'p bo'lishi o'qish-yozish ko'nikmalarini shakllantirish jarayoniga mos keladi. Leksik mashqlarning barcha sinflarda keng taqdim etilishi esa o'quvchilarning so'z boyligini izchil boyitish imkoniyatini yaratadi. Ba'zi og'zaki nutq mashqlari esa kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish elementlarini o'z ichiga oladi, masalan, do'konda xarid qilish, kutubxonada kitob so'rash, shifoxonada bo'lish kabi kundalik hayotiy holatlarni qamrab oladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'zbek tili darsliklaridagi mashqlarning til kompetensiyasini rivojlantirishdagi imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash imkonini berdi. Tahlil natijalariga ko'ra, amaldagi darsliklar asosan lingvistik kompetensiya komponentini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, grammatik, leksik va imlo mashqlari ustunlik qiladi. Shu bilan birga, kommunikativ, pragmatik va strategik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar yetarli emas. Mashqlarning ko'pchiligi reproduktiv xarakterga ega bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrlash, mustaqil muloqot yuritish hamda real hayotiy vaziyatlarda til vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanishga o'rgatuvchi topshiriqlar kam uchraydi.

Bu holat zamonaviy ta'lim tizimining kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga to'liq mos kelmaydi va darsliklarni yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'zbek tili darsliklarini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun: kommunikativ mashqlar ulushini oshirish va ularni real hayotiy vaziyatlar hamda autentik materiallar bilan bog'lash zarur; guruhli va juftlik ishlari, loyiha faoliyati, muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo'naltirilgan topshiriqlarni kiritish orqali o'quvchilarning ijtimoiy, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hutorskoy, A.V. (2017). Kompetentnostnyy podkhod v obuchenii: Nauchno-metodicheskoye posobiye. Moskva: Eydos.
2. Askarova, Sh.I. (2019). Ona tili ta'limida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy-metodologik asoslari. O'zbek tili va adabiyoti, 3, 45–52.
3. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), 1–47.
4. Zimnyaya, I.A. (2013). Klyuchevyye kompetentsii – novaya paradigma rezultata obrazovaniya. Moskva: Logos.
5. Mahmudov, N.M., & Nematov, H.G. (2018). Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limining zamonaviy muammolari. Xalq ta'limi, 5, 28–34.
6. Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) (2020). Companion Volume. Council of Europe Publishing.
7. Gal'skova, N.D., & Gez, N.I. (2016). Teoriya obucheniya inostrannym yazykam: Lingvodidaktika i metodika. Moskva: Akademiya.
8. Matchanov, S. (2015). O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.
9. Kuznetsova, M.I. (2019). Sovremennyy uchebnyk russkogo yazyka dlya nachalnoy shkoly: Trebovaniya i realnost. Nachalnaya shkola, 7, 15–22.
10. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.